



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 02 | pp. 183-188 | ISSN: 2181-1865
Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

O'ZBEKISTON BANK TIZIMI: ISLOHOTLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI



Xusainov Xusan Baratovich
 bo'lim boshlig'i
 Ijro nazorati departamenti
 O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik
 tijorat Xalq banki
 Toshkent, O'zbekiston
x.xusainov@xb.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada bank tizimida oxirgi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar hamda muammolar o'r ganildi. Mavjud adabiyotlarni o'r ganib, hozirgi kunda mamlakatimizda bank tizimining rivojlanishiga ta'sir qilayotgan muammolarni aniqlaymiz va ushbu kamchiliklarni bartaraf qilishda kerakli islohotlar va strategiyalarni ishlab chiqamiz.

Kalit so'zlar: bank tizimi, kredit, innovatsion texnologiyalar, iqtisodiyotni liberallashtirish, masofaviy bank xizmatlari.

БАНКОВСКАЯ СИСТЕМА УЗБЕКИСТАНА: ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РЕФОРМ

Хусайнов Хусан Баратович
 начальник отдела
 Департамент исполнительного контроля
 Республики Узбекистан
 коммерческий Народный Банк
 Ташкент, Узбекистан

Аннотация: в данной статье изучены реформы и проблемы банковской системы за последние годы. Изучив существующую литературу, мы выявим проблемы, которые в настоящее время влияют на развитие банковской системы в нашей стране и разработаем необходимые реформы и стратегии для устранения этих недостатков.

Ключевые слова: банковская система, кредит, инновационные технологии, либерализация экономики, дистанционные банковские услуги

BANKING SYSTEM OF UZBEKISTAN: THE MAIN DIRECTIONS OF REFORMS

Khusainov Khusan Baratovich
 Head of the department executive control
 The Joint Commercial Stock Xalq Banki
 Tashkent, Uzbekistan

Annotation: this article examines the reforms and problems of the banking system in recent years. By reviewing the existing literature, we will identify the problems that are currently affecting the development of the banking system in our country and develop the necessary reforms and strategies to address these shortcomings.

Keywords: banking system, loan, innovative technologies, liberalization of the economy, remote banking services

1. Kirish

Ma'lumki, mamlakatimiz iqtisodiyotining buguni va ertasi qanday bo'lishi ko'p jihatdan moliya-bank tizimini isloh qilish jarayonida ularning barqarorligini ta'minlash, tadbirkorlik faoliyatini keng ko'lamda rivojlantirish, qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish, moliyaviy muassasalar faoliyatini xalqaro standartlarga muvofiq yanada takomillashtirish, ko'rsatilayotgan moliyaviy xizmatlar hajmini kengaytirish, iqtisodiy tarmoqlarda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hamda eng asosiysi, aholining ishonchini oshirish yuzasidan erishilayotgan natijalarga bog'liqdir.

Hozirgi davrda iqtisodiyotni liberallashtirish va innovatsion texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash, tijorat banklari faoliyatini rivojlantirish hamda moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish bank tizimini isloh qilish, uni barqarorligini ta'minlashning asosiy yo'naliшlaridir.

Mazkur strategiya bank tizimini rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari va ustuvor sohalarini, 2020-2025 yillarda bank tizimini transformatsiya va isloh qilish yo'naliшlarini, xorijiy mamlakatlarning moliya sektorini transformatsiya qilish tajribasi asosida va moliyaviy sohadagi jahon tendensiyalarini hisobga olgan holda ehtimoliy yechimlarni izlash yo'llarini belgilaydi.

Ushbu maqola mamlakatimiz bank tizimini rivojlantirish yuzasidan davlat tomonidan amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarni yoritishga qaratilgan. Mavjud adabiyotlarni tahlil qilish orqali biz bank-moliya sohasida yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash va tahlil qilishni maqsad qilganimiz.

2. Adabiyot sharhi

So'ngi yillarda axborot texnologiyalari sohasining tezkorlik bilan rivojlanib borishi o'z navbatida, mamlakatlarning bank-moliya sohasiga ham o'zining sezilarli va ijobjiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Jumladan, bundan 5-10 yillar oldingi bank tizimi hozirgi davrdagi raqamlashtirilgan bank tizimidan tubdan farq qilgan.

Ma'lumki, hozirgi kunda barcha rivojlangan davlatlarda tijorat banklari raqamlashtirilgan zamон talabiga mos hamda mijozlar uchun qulay sharoitlar yaratilgan ixcham va shinam bank xizmatlari markazlariga aylantirilmoqda.

Bulardan ko'zlangan asosiy maqsad – mijozlarga o'z vaqtida sifatli hamda masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish.

Shu bilan birga, 5-10 yildan keyin mamlakatimizdagi barcha tijorat banklari tomonidan mijozlarga ko'rsatilayotgan bank xizmatlari banklarning yagona platformalari orqali masofaviy amalga oshirilsa ajabmas.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida, bank tizimida tobora muhim ahamiyat kasb etayotgan dasturiy ta'minot va intellektual mulklar mijozlar uchun yangi turdag'i bank xizmatlarini keltirib chiqaradi.

3. Tahlil va natijalar

Mamlakatimiz bank tizimini yanada rivojlantirish va uning huquqiy bazasini mustahkamlash borasida jadal sur'atlar bilan ishlar olib borilmoqda va aniq maqsadlarga mo'ljallangan yo'l xaritasi ishlab chiqilgan. Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va ular faoliyatining shaffofligini oshirish borasida mamlakatimiz Prezidentining qator farmon va qarorlari qabul qilindi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-maydagi "2020 – 2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloq qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992 sonli farmoni qabul qilindi.

Mamlakatimiz bank tizimi bugungi kunda bank xizmatlarining an'anaviy sohalarini kreditlash, depozit operatsiyalari, hisob-kitob va kassa kabi xizmatlarni ko'rsatuvchi 33 ta tijorat bankidan tashkil topgan.

Shuningdek, bank tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning natijasini iqtisodiy ko'rsatkichlardi ijobjiy o'zgarishlarda ko'rishimiz mumkin.

Bank tizimi faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida ma'lumot¹

Ko'rsatkich- lar nomi	01.02.2023 y.			01.02.2024 y.			Nominal o'sishi, foizda	Haqiqiy o'sishi, (devalvatsiyani hisobga olmagan holda) foizda
	jami	shundan, xorijiy valyutada	ulushi, foizda	Jami	shundan, xorijiy valyutada	ulushi, foizda		
Jami aktivlar	558 494	263 665	47%	652 387	289 619	44%	17%	12%
Jami kredit qo'yilmalari	391 109	184 732	47%	469 600	209 628	45%	20%	15%
Jami depozitlar	214 197	83 574	39%	242 119	73 435	30%	13%	10%
Jami kapital	80 686	362	0,4%	98 482	398	0,4%	22%	22%

Mamlakatimiz mustaqilligi davrida banklar davlat ishtirokidagi korxonalarini va davlat rivojlanish dasturlarini imtiyozli foiz stavkalarida moliyalashtirishga faol jalb etgan holda muayyan maqsad va vazifalar uchun tashkil etildi. Natijada imtiyozli kreditlarning bank tizimi umumiy portfelidagi ulushi 60 foizdan ko'proqni tashkil etmoqda.

Bank sektorida davlat ustun mavqega ega 33 ta bankdan 13 tasining kapitalida davlat ishtiroki mavjud bo'lib, ularning kapitali bank tizimi jami kapitalning

¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

87 foizidan ko'prog'ini, aktivlari esa umumiy aktivlarning 85 foizidan ko'prog'ini tashkil qiladi.

Bundan tashqari, bank tizimidagi ijobiy o'zgarishlarning muqaddimasi sifatida mamlakatimiz iqtisodiyotini raqamlashtirish hamda bank tizimidagi transformatsiya jarayonlari yuzasidan olib borilayotgan keng qamrovli iqtisodiy o'zgarishlarda buni yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Iqtisodiyot rivojining jadallahuvi bilan raqamli iqtisodiyot asta-sekin odamlarning ko'rish maydoniga kirdi va tobora ko'proq e'tiborga sazovor bo'ldi. Mamlakatimizning raqamli iqtisodiyoti ko'lami kengayishda davom etmoqda va katta ma'lumotlar texnologiyasi, axborot texnologiyalari hamda bulutli hisoblash kabi innovatsion internet raqamli iqtisodiyotning qamrovi va xizmat ko'rsatish doirasini yanada kengaytirib, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishning asosiy dvigateliga aylandi hamda yuqori sifatli iqtisodiy rivojlanishni ta'minlamoqda.

Tijorat banklarini xalqaro moliya institutlari ko'magida transformatsiya qilishdan kutilayotgan asosiy natijalardan biri bank ishida yetarli darajada tajriba, bilim va obro'ga ega bo'lgan strategik investorlarni jalb qilgan holda qator tijorat banklarida davlat ulushini kamaytirish, faoliyatga xalqaro tajribani olib kirishdir. Qolaversa, kredit tashkilotlarini ularga xos bo'lмаган funksiyalarni bajarishdan, shuningdek, ortiqcha yuklamalardan ozod qilish orqali ma'muriy yukni izchillik bilan bartaraf etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, tijorat banklarining biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va masofaviy bank xizmati turlarini kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish ko'zlanmoqda.

Bu sohani isloq qilish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar natijasida so'nggi uch yilda banklar kapitali 1,8 baravarga, yillik kredit ajratish hajmi 2 baravarga ko'paydi. 4 ta bank ilk bor "evrobond" chiqarib, xalqaro kapital bozorlaridan 1 milliard dollar resurs olib keldi. Ipoteka bankka strategik xorijiy investor jalb qilindi. 13 ta yangi xususiy bank tashkil etildi, Vengriya, Qozog'iston va Gruziyaning nufuzli banklari yurtimizda faoliyat boshladи. Onlayn bank xizmatlari hajmi 2,7 barobarga oshirildi.

Bank tizimida masofaviy bank xizmatlarining rivojlanishi mavjud bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiy muhitning bir qator ob'ektiv xususiyatlariga, birinchi navbatda, odamlar hayotidagi o'zgarishlar, yangi axborot texnologiyalarining joriy etilishi va bank operatsiyalarining avtomatlashtirilgani bilan bog'liq.

Masofaviy bank xizmatlari mijozlarga xizmat ko'rsatishning an'anaviy usullariga nisbatan quyidagi umumiy ustunliklarga ega:

- xizmat ko'rsatish tezligi va sifatining oshishi, masofaviy bank xizmati orqali vaqtini tejash imkoniyati mavjudligi hamda mijoz o'z hisobvarag'ini kunu-tun boshqarish imkoniyati yaratiladi va mijoz dunyoning istalgan nuqtasidan o'z o'tkazmalarini amalgaga oshirishi mumkin bo'ladi, buning uchun personal kompyuter va internet yoki mobil telefon hamda aloqa tarmoqlari bo'lsa kifoya;

- yangi bank xizmatlarini yaratish, ularni amaliyotda qo'llash yoki mavjud moliyaviy xizmatlarni ham axborot-kommunikatsion texnologiya vositalari bilan integratsiyalash orqali bank mijozlariga qulay bank xizmatlarini taklif etish imkonini ortadi;

- bank xizmatlarini soddalashtirish va ular bilan bog'liq xarajatlarni minimallashtirish orqali kelgusida bank xizmatlari uchun xizmat haqining mijozlarga qulay tariflarga yetkazish imkonini yaratadi. Oxirgi yillarda banklarda masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish borasida sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda, shuning sababli tijorat banklari mijozlariga xizmatlaridan qanday foydalanish borasida tushuntirish ishlarini olib borishi natijasida bu xizmatlarning kelgusida yanada keng ommalashishiga olib keladi. Moliyaviy xizmatlar yetkazib berish va iste'mol qilish borasida so'nggi yillarda katta o'zgarishlar bo'ldi. Texnologik rivojlanish natijasida biznes, bank va moliya tizimi muhitida katta o'zgarishlar ro'y bermoqda.

O'z navbatida, tijorat banklari mijozlariga masofadan bank xizmatlarini ko'rsatish orqali xizmat ko'rsatish xarajatlari kamayishi natijasida yangi mijozlarni jalg qilish hamda moliya bozorida raqobatni rivojlantirish imkoniyatini beradi. Natijada bu ishlarni yo'lga qo'yish bank daromadini oshirishga ham turtki bo'ladi.

4. Xulosa

Xulosa qilib aytish mumkinki, iqtisodiy sohalarning "lokomotivi" hisoblanadigan bank tizimining rivojlanib borishi iqtisodiy hamda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ham ijobjiy ta'sirini o'tkazadi. Jumladan, mamlakatimiz iqtisodiyotini "iqtisodiy faol" davlatlar qatorida yuritilishiga olib keladi.

Iqtisodiy tarmoqlarni transformatsiya qilish va rivojlantirish bo'yicha tarkibiy islohotlarning davom ettirilishi "asosiy senariy"ning muhim shartlari sifatida ko'rilmoxda.

Shu bilan birga, iqtisodiyotda davlatning roli pasayib borishi natijasida barcha sohalarda, shu jumladan, bank tizimida ham samaradorlik ko'rsatkichlarida ijobjiy tendensiyalarga erishiladi.

Barcha iqtisodiy islohotlarning tub zamirida, albatta yurtimizning tinch va farovon kelajagi yotadi. Mamlakatimizda bank-moliya tizimida olib borilayotgan islohotlar o'z natijasini beradi va respublikamiz aholisi turmush darajasi yanada yaxshilanadi.

Amalga oshirilayotgan islohotlarimiz jahon hamjamiyati tomonidan munosib baholanmoqda. Xususan, dunyodagi nufuzli nashrlardan biri "Ekonomist" jurnali O'zbekistonni islohotlarni eng jadal amalga oshirgan davlat – "Yil mamlakati" deb e'tirof etdi. Bunday baho barchamizga cheksiz g'urur, iftixor va kuch bag'ishlaydi, yangi marralarga ruhlantiradi.

Adabiyotlar

1. "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni 11.11.2019-y., O'RQ-582-sonli
2. "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni 05.11.2019-y., O'RQ-580-sonli
3. Abdullaeva Sh.Z. va boshq. Tijorat banklari kapitali va uni boshqarish. O'quv qo'llanma.-T.: Iqtisod-Moliya. 2007-yil. 182-b.
4. Abdullaeva Sh. Bank ishi. Darslik.-T.:2003-yil. 312-b.
5. Abdullaeva Sh.Z. Bank risklari va kreditlash. -T.: Moliya. 2002-yil. 304-b.
6. Abdullaev Yo., Qoraliev T., Toshmurodov Sh., Abdullaeva S. Bank ishi.
7. Omonov A. Tijorat banklarining moliyaviy resurslarini boshqarish. – T.: Fan va texnologiya. 2008-yil.

8. Sharifxo'jaev M., Abdullaev Yo. Menejment: Darslik-T.: O'qituvchi. 2001-yil.704-b.

9. Abdurasulov J. Tijorat banklari faoliyatida xalqaro reyting agentliklarining o'rni //Bozor, pul va kredit.-T.: 2007-yil. 9, 17-19-b.b.

10. Aliev J. Bank faoliyatida marketing va menejment vositalarining ahamiyati //Bozor, pul va kredit.- T.: 2006-yil. №12. 7-8-b.b.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

